

Onlayn mikroqarz berish haqida ommaviy oferta shartnomasi.

Toshkent sh.

___.___.2025 y.

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB (bundan buyon matnda “Bank” deb ataluvchi) bir tomondan va masofaviy xizmat ishtirokchisi bo‘lib, bankning mobil ilovalari foydalanuvchisi bo‘lgan va mazkur ommaviy ofertani qabul (aksept) qilgan fuqaro (bundan buyon matnda “Mijoz” deb ataluvchi) ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

I. Umumiy shartlar

1.1. Bank mazkur shartnomaga ko‘ra Bank karta (Bank tomonidan emissiya qilingan) egalari bo‘lgan jismoniy shaxslarga, milliy valyutada bankning mobil ilovalari orqali kredit ajratish yuzasidan ommaviy ofertani taklif etadi.

1.2. Mazkur oferta shartnomasida aks etgan shartlar jismoniy shaxslar (keyingi o‘rinlarda - Qarz oluvchi) tomonidan to‘liq o‘rganilishi shart. Mazkur ommaviy oferta shartlari Qarz oluvchi va Bank uchun Qarz oluvchi tomonidan akseptlaganidan keyin majburiy hisoblanadi.

1.3. Mazkur ommaviy oferta Qarz oluvchi tomonidan o‘zining Bank kartasi rekvizitlaridan foydalangan holda kredit olish uchun zarur bo‘lgan barcha harakatlarni bajarilganidan keyingina akseptlagan hisoblanadi.

1.4. Qarz oluvchi tomonidan ommaviy ofertani akseptlash deb quyidagilar hisoblanadi:

- shartnoma shartlarini Qarz oluvchi tomonidan to‘liqligicha qabul qilish;
- o‘zaro tushunmovchilik va nizolar vujudga kelganida Bankka mazkur oferta shartlariga tayanish huquqini beradi;
- ofertadan dalil sifatida foydalanish imkoniyatini beradi;
- mazkur oferta shartlari Qarz oluvchiga Bank mobil ilovasi orqali kredit ajratilgan vaqtdan boshlab amal qiladi.

Mazkur oferta va uning shartlari Fuqarolik kodeksining 367, 369, 370-moddalariga asosan ishlab chiqilgan.

II. Shartnoma predmeti

2.1. Bank ushbu ofertani akseptlovchi Qarz oluvchiga shaxsiy ehtiyojlari uchun mikroqarz berish majburiyatini, Qarz oluvchi esa olingan mikroqarz mablag‘larini belgilangan muddatda qaytarish va mikroqarzdin foydalanganligi uchun foizlar to‘lash majburiyatini oladi.

III. Mikroqarz ajratish tartibi

3.1 Mikroqarz milliy valyutada kredit liniyasi ochmagan holda, Qarz oluvchining ssuda hisobvarag‘idan faqat Bank tomonidan emissiya qilingan (ochilgan) Bank kartasiga (maxsus

hisobvarag'iga) naqdsiz shaklda pul o'tkazish yo'li bilan ajratiladi.

3.2. Mikroqarz shartnoma akseptlagan vaqtning keyingi ish kunidan kechiktirmasdan ajratiladi. Mobil ilova va mobil ilovaning ishlashi bilan bog'liq bo'lgan ichki va tashqi ma'lumotlar bazasi hamda Bankning dasturiy ta'minotlarida kutilmagan texnik nosozliklar ro'y bergan holatlar bundan mustasno. Bunda, Bank ro'y bergan texnik nosozliklar bartaraf etilgan bank ish kuni davomida nazarda tutilgan kredit liniyasini ochib berish majburiyatini oladi.

3.3. Mikroqarz muddati 12-48 oygacha (mijoz tomonidan tanlanadi).

3.4. Mikroqarz va unga hisoblangan foizlarni to'lash muddati: har oyning grafik sanasida.

3.5. Kredit ta'minoti: qarz oluvchi tomonidan kredit qaytarmaslik xavf xataridan sug'urta polisi

IV. Mikroqarzni qaytarish va foizlarni to'lash tartibi

4.1. Kredit yillik foiz stavkasi 28-31%. Kredit foiz stavkasi mijoz tanlagan kredit muddatidan kelib chiqib belgilanadi:

Kredit muddati	1 yil	2 yil	3 yil	4 yil
Kredit foiz stavkasi	28%	29%	30%	31%

4.2. Kreditdan foydalanganlik bo'yicha foizlar Bank tomonidan har kuni hisoblab boriladi. Bunda, oylik foiz to'lovi har oyning mavjud bo'lgan kunlar soni bo'yicha aniqlanadi. Kredit bo'yicha foiz hisoblanishi bank ish kuni yakunida mavjud bo'lgan asosiy qarz qoldig'i bo'yicha hisoblanadi.

4.3. Kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlar hamda boshqa to'lovlar Bank kassasiga naqd pul yoki bank mobil ilovasi yohud boshqa to'lov vositalari orqali pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi. Qarz oluvchi tomonidan kredit bo'yicha to'lovlar belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi shart.

4.4. Agar mikroqarz to'lovining sanasi bank ish kuni hisoblanmasa, to'lov keyingi bank ish kuniga ko'chiriladi.

4.5. Shartnoma bo'yicha har qanday to'lovlar quyidagi ketma ketliklarga muvofiq yo'naltiriladi:

a) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;

b) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzдорlik;

v) neustoyka (jarima, penya);

g) kreditorning qarzдорlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

4.6. Mazkur Shartnoma bo'yicha Bank o'z talablarini qanoatlantirishi uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga asosan, Qarz oluvchining barcha hisobvaraqlarida (ya'ni, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari, bank kartasi hamda boshqa hisobvaraqlarida) turgan pul mablag'larini to'lov talabnomasi yoki memorial

order orqali soʻzsiz tartibda Qarz oluvchining rozilgisiz avto toʻlov tizimidan foydalangan holda kredit qarzдорligini qoplashga haqli.

V. Taraflarning huquq va majburiyatlari

5.1. Bank majburiyatlari:

5.1.1. Qarz oluvchiga ssuda va boshqa lozim boʻlgan hisobvaraqlar ochish;

5.1.2. Mazkur shartnomada koʻrsatilgan shartlar va miqdorda pul mablagʻlaridan foydalanish uchun mikroqarz taqdim etish;

5.1.3. Qarz oluvchining bankdagi maxsus karta hisobvaragʻiga kelib tushayotgan pul mablagʻlarini uning vujudga kelgan qarzдорligini qoplash uchun yoʻnaltirish;

5.1.4. Qarz oluvchini kredit va unga hisoblangan foizlar boʻyicha vujudga kelgan muddati oʻtgan qarzдорlik toʻgʻrisida mobil ilova va sms xabarnoma orqali shuningdek, yozma yoki ogʻzaki tartibda xabardor etish.

5.1.5. Firibgarlikka qarshi choralar doirasida ajratilgan kredit mablagʻidan foydalanishda ayrim toʻlovlarga cheklov oʻrnatilganligi hamda ushbu cheklovlarni yechish uchun SMS-xabar yoki mobil ilovadagi PUSH-xabarda qayd etilgan telefon raqamlariga qoʻngʻiroq qilib, qoʻshimcha tasdiqdan oʻtish lozimligi toʻgʻrisida qarz oluvchiga xabar yuborish.

5.1.6. Qarz oluvchi qoʻshimcha tasdiqdan oʻtganidan va kredit firibgarlar taʼsirisiz olinganligi tasdiqlanganidan soʻng pul mablagʻlariga qoʻyilgan cheklovlarni yechish.

5.2. Bank huquqlari:

5.2.1. Quyidagi holatlarda Qarz oluvchidan kredit va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytarish, shartnomani bekor qilish hamda kredit boʻyicha barcha qarzдорliklarni bartaraf etish haqida talab qoʻyishi mumkin:

- kredit boʻyicha hisoblangan asosiy qarz va (yoki) foizlarning toʻlov muddati buzilishi;

- qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashishi;

- qarz oluvchining hisobvaragʻidagi pul mablagʻlariga (shuningdek bankda ochilgan) taqiq qoʻyilgan boʻlsa;

- qarz oluvchining kreditni qoplash uchun istiqboli mavjud boʻlmasa;

- qarz oluvchi tomonidan shartnoma shartlarini oʻz muddatida bajarilishiga tahdid soluvchi asos va boshqa hodisalar sodir boʻlib, shartnoma boʻyicha oʻz majburiyatlarini bajarmagan taqdirda.

5.2.2. Kredit mablagʻi firibgarlar taʼsirida ajratilishining oldini olish maqsadida qarz oluvchining toʻlov qobiliyatini 2 marta tekshiruvdan (skoring) oʻtkazish.

5.2.3. Bankning mobil ilovasidan roʻyxatdan oʻtgan yangi foydalanuvchiga birinchi onlayn kredit (mobil ilova orqali ilk marta onlayn kredit ajratish boʻyicha ariza kelib tushishi) ajratilganda yoki mavjud akkauntga boshqa mobil qurilmadan kirgan mijozga birinchi onlayn kredit ajratilganda ushbu pul mablagʻidan 48 soat davomida P2P amaliyotlarini, jismoniy shaxslarning hisobvaraqlari va elektron hamyonlariga

o'tkazmalarini, P2P o'tkazmalari orqali to'ldirish imkoniyatini yaratgan mobil aloqa operatorlar telefon raqam hisobibini to'ldirish, chet el to'lovlari yoki o'tkazmalari hamda onlayn valyuta ayirboshlash amaliyotlaridan foydalanishga cheklov o'rnatish hamda ajratilgan mikroqarz mablag'lari akseptsiz ortga qaytarish.

5.2.4. Kredit mablag'i firibgar ta'sirisiz ajratilganini aniqlash maqsadida, qarz oluvchiga qo'ng'iroq qilib, qarz oluvchining familiyasi, ismi, sharifi, pasport ma'lumotlari, ariza kim tomonidan berilganligi, agarda ariza firibgarlar ta'sirida berilgan bo'lsa, qaysi ma'lumotlar firibgarlarga oshkor qilingani, firibgarlar bilan qaysi vosita yordamida bog'langanligi(videoqo'ng'iroq), kredit olishga ariza berilgan mobil qurilma rusumi, ariza yuborilgan sana va vaqt, shuningdek firibgarlik holatlarining oldini olishga qaratilgan boshqa ma'lumotlarni so'rash.

5.2.5. Qarz oluvchining maxsus karta hisobvarag'i va boshqa hisobvarag'lari bo'yicha amaliyotlarni nazorat va monitoringini mustaqil tarzda amalga oshirish (shuningdek, hisobidagi kirim-chiqim pul aylanmalari holati).

5.2.6. Kreditga ariza berish davomida qarz oluvchining mobil ilovadagi shaxsiy sahifasiga bog'langan barcha kartalar va keyinchalik bankka ma'lum bo'lgan Bank filiallarida va boshqa tijorat banklarida ochilgan qarz oluvchining shaxsiy kartalarini avto to'lov xizmatiga bog'lash va muddati o'tgan qarzдорlik vujudga kelgan taqdirda mazkur kartalardan qarzдорlikni akseptsiz undirish;

5.2.7. Kredit olish jarayonida texnik nosozliklar sababli qarz oluvchi kartasiga ortiqcha pul mablag'lari tushirib berilishi oqibatida yuzaga kelgan qarzдорlikni undirish bo'yicha zaruriy choralarni ko'rish;

5.2.8. Kredit bo'yicha barcha qarzдорliklar qaytarilishida o'zining huquq va manfaati himoyasi uchun yetarli va zarur bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ofertadagi qaytarishning barcha choralarni ko'rish. Qaytarish bilan bog'liq barcha harajatlar Qarz oluvchi tomonidan qoplanadi;

Kreditning asosiy qarzi va unga hioblangan foiz to'lovlari o'z muddatida to'lanmagan taqdirda undiruvni kreditning ta'minotiga yoki Qarz oluvchining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari, bank plastik kartasi hamda boshqa hisobvarag'larida turgan pul mablag'lariga qaratish orqali undirish.

5.2.10. Mijozga yangi bank mahsulotlarini sotish va xizmatlar ko'rsatish maqsadida unga tegishli bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish, shu jumladan mijoz to'g'risidagi ma'lumotlarni ichki va tashqi manbalardan olish, qayta ishlash, tahlil qilish hamda mijozning to'lov qobiliyatini o'rganish orqali unga mos keluvchi bank mahsuloti va xizmatlarini taklif qilib borish.

5.3. Qarz oluvchining majburiyatlari:

5.3.1. Kredit bo'yicha asosiy qarz va foizlarni belgilangan muddatda va miqdorda to'lash, ish haqi yoki unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'tkazish, zarur hollarda, naqd pul mablag'larini Bank kassasiga topshirish yo'li bilan to'lovlarni amalga oshirish;

5.3.2 . Kredit va unga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida va to'liq qoplanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha holatlar haqida bankni o'z vaqtida xabardor etish;

5.3.3. Bank dasturiy ta'minotlarida kutilmagan texnik nosozliklar sababli qarz oluvchining bank kartasiga noto'g'ri kelib tushgan pul mablag'lari yuzasidan Bankni har qanday aloqa vositalari orqali xabardor qilish va mazkur mablag'lardan foydalanmaslik, qaytarish masalasi bo'yicha barcha choralarni ko'rish, shuningdek qarzдорlik bo'yicha hisoblanishi lozim bo'lgan foizlar noto'g'ri ekanligi aniqlanganda bankni zudlik bilan xabardor etish;

5.3.4. Yashash manzili va ish joyi o'zgarganligi haqida, Bankni besh ish kunidan kechiktirmagan holda yozma tartibda ogohlantirish;

5.3.5. Qarz oluvchi bilan Bank o'rtasida aloqa vositasi bo'lgan, ya'ni qarz oluvchi bilan bog'lanish imkonini beruvchi ma'lumotlar (telefon raqam va boshqalar)ning o'zgarganligi haqida, Bankni uch kunlik muddatda yozma tartibda ogohlantirish;

5.3.6. Qarz oluvchi Bankka noto'g'ri ma'lumotlar berilishi sababli kelib chiqadigan holatlar uchun javobgar;

5.3.7. Kredit bo'yicha qarzдорlik doirasida o'z majburiyatlari yuzasidan Bank oldida barcha mol- mulki bilan javob berish;

5.3.8. Login, parol va maxfiy so'zni oshkor qilmaslik, shuningdek tizimga kirish uchun SMS xabarnoma orqali yuborilgan tasdiqlov kodlarini uchinchi shaxslarga bermaslik, bunday holatlar kuzatilsa Bank ushbu holat yuzasidan kelib chiqqan moddiy va ma'naviy zararlar uchun javobgar emas;

5.3.9. Qarz oluvchi quyidagilarni tasdiqlaydi va kafolatlaydi:

a) qarzдорlik muammoga aylanganda va o'z muddatida to'lanmaganda, uning so'ndirilishi yuzasidan amaliy yordam so'rab, Qarz oluvchining ish joyi, yashash joyidagi MFY va yaqin qarindoshlariga Bank tomonidan yozma murojaat qilinishiga o'z roziligini beradi hamda bu holat bank sirini oshkor qilish deb hisoblanmaydi;

b) kredit to'lovi muddati o'tkazib yuborilgan qarz yuzaga kelganligi haqida SMS xabar junatilishi va telefon orqali qo'ng'iroqlar amalga oshirilishiga qarshi emas;

v) qarzдорlik vujudga kelgan taqdirda qarz oluvchining shaxsiy va kredit qarzдорligi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni kredit ta'minoti sifatida kredit qaytmaslik xavf xataridan sug'urta polisini taqdim etgan sug'urta kompaniyasi taqdim etilishiga o'z roziligini beradi va bu holat bank sirini oshkor qilish deb hisoblanmaydi;

g) Kredit tarixini shakllantirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni Kredit axborotining davlat reyestri va kredit byurosiga taqdim etilishiga/olinishiga o'z roziligini beradi, bu holat bank sirini oshkor qilish deb hisoblanmaydi.

5.3.10. Qarz oluvchi quyidagilar haqida ogohlantiriladi:

Bank tomonidan mikroqarz ajratilishi oldidan Qarz oluvchi o'zining joriy va kutilayotgan moliyaviy ahvolini mustaqil ravishda baholashi zarur. Xususan:

a) o'zining qarz yuki darajasi joriy moliyaviy imkoniyatlariga mos kelishi lozim;

b) shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishi uchun qayerdan va qanday muddatlarda daromadlar tushishi (masalan, ish haqi yoki boshqa doimiy daromadlar) oldindan hisobga olinishi kerak;

v) qarz majburiyatlarini bajara olmasligiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar (ishdan bo'shsh, daromadlar kechikishi, sog'liq yomonlashuvi va boshqalar) ehtimoli baholanishi zarur.

Qarz oluvchi ushbu omillar to'g'risida to'liq ogohlantirilgan holda, o'z roziligi asosida shartnoma tuzganligini tasdiqlaydi.

5.4 Qarz oluvchining huquqlari:

5.4.1. Kredit mablag'lari ajratilguniga qadar, kredit olishdan bepul asosda voz kechish;

5.4.2. Kreditni muddatidan oldin qaytarish;

5.4.3. Kredit qarzдорliklari bo'yicha Bankdan ma'lumotlar olish;

5.4.4. Kreditlash va hisob-kitoblar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari va Bankning ichki me'yoriy hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida Bankdan ma'lumot olish.

5.5 Sanksiyalar bilan bog'liq xatarlarni boshqarish bo'yicha shartlar

5.5.1 Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlarning har biri o'z faoliyatida iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar bo'yicha xalqaro qonunchilikka rioya qilishga qaratilgan siyosat va tartiblariga amal qilishini, ularni qo'llab-quvvatlashini tan oladi hamda tasdiqlaydi.

5.5.2 Qarz oluvchi uchun hisobvaraqlar ochishdan oldin Bank tavakkalchiligini (shu jumladan sanksiyalar xavfi) aniqlash uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni va hujjatlarni so'rashga haqli. So'ralgan ma'lumotlar taqdim etilmagan yoki to'liq taqdim etilmagan taqdirda, bank omonatchiga hisobvaraqlar ochishni rad etishga haqli.

5.5.3 Qarz oluvchi yoki uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushishi xavfi mavjud bo'lganda, Bank - operatsiyani o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni hamda zarur bo'lgan hujjatlarni olish (so'rash), operatsiya miqdorini chegaralash, operatsiyani cheklash, rad etish, shuningdek mazkur shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

5.5.4 Bank har qanday sanksiya va embargolar bilan bog'liq xatarlar oqibatida Qarz oluvchining topshirig'iga asosan amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha pul mablag'larining qaytarilishi, bloklanishi, muzlatilishi yoki shu kabi boshqa holatlar uchun javobgar bo'lmaydi. Shuningdek, har qanday sanksiyalar ta'siri sababli Qarz oluvchiga yetkazilgan zarar uchun javobgar hisoblanmaydi.

5.6 Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha shartlar.

5.6.1. Qarz oluvchi tomonidan bank xizmati va (yoki) mahsulotidan foydalangan holda gumonli va (yoki) shubhali operatsiyalar amalga oshirilganligi aniqlansa, bajarilgan operatsiyalarning qonuniyligi haqida Qarz oluvchi yozma tushuntirish hamda asoslantiruvchi hujjatlar bergunga qadar Bank xizmat ko'rsatishni to'xtatib turadi va rad etadi. (Gumonli va shubhali operatsiyaga ta'rif Adliya vazirligidan 2017-yil 23-mayda 2886-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni

moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat Qoidalari"da keltirilgan).

5.6.2. Bank quyidagi hollarda oldindan xabar qilmasdan operatsiyani amalga oshirishni to'xtatib turadi (bunda tushgan pul mablag'larini hisobga kiritish operatsiyalari mustasno) va (yoki) pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to'xtatib qo'yadi:

- operatsiya ishtirokchilardan biri Terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar Ro'yxatiga (keyingi o'rinlarda Ro'yxat) kiritilgan bo'lsa;

- operatsiya ishtirokchilardan biri Ro'yxatga kiritilgan shaxs nomidan yoki uning topshirig'iga asosan faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa;

- operatsiyani amalga oshirishda foydalanayotgan pul mablag'lari yoki boshqa mol- mulk to'liq yoki qisman Ro'yxatga kiritilgan shaxsga tegishli bo'lsa yoxud nazorati ostida bo'lsa;

- operatsiya qatnashchisi bo'lgan yuridik shaxs Ro'yxatga kiritilgan jismoniy yoki yuridik shaxsning mulkida yoki nazorat ostida bo'lsa;

- pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk Ro'yxatga kiritilgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita tegishli yoxud nazorati ostida bo'lgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkidan foydalanish natijasida olingan yoxud sotib olingan bo'lsa.

VI.Taraflar javobgarligi

6.1. Bank quyidagi hollarda qarz oluvchining nomidan Bankning mobil ilovasi orqali olingan pul mablag'lari uchun javobgar bo'lmaydi, jumladan:

- qarz oluvchining yaqinlari va qarindoshlari hamda uchinchi shaxslarga mobil ilovada qarz oluvchining shaxsiy sahifasiga qarz oluvchining shaxsan o'zi kirish va undan foydalanish imkoniyatini bergan taqdirda;

- qarz oluvchining PIN (PIN) kodlari va parollari, mobil ilova va qarz oluvchining kartalari bo'yicha kelgan sms xabarnomadagi kodlarning qarz oluvchining aybi bilan boshqa shaxslarga ma'lum bo'lib qolishi natijasida;

- Bankka Qarz oluvchi nomidan noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etilishi natijasida.

6.2. Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda, Qarz oluvchi Bankka butun kechiktirilgan davr uchun shartnomada belgilangan foiz stavkasining 1,5 baravar oshirilgan miqdorida yuqori foiz to'laydi.

6.3. Mazkur shartnomada belgilangan muddatda Bank tomonidan kredit liniyasini ochib berish kechiktirilganida, Bank Qarz oluvchiga kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizdan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

6.4. Foizlarni belgilangan muddatda to'lamaganligi va ular bo'yicha muddati o'tgan summalar vujudga kelgani uchun qarzdor Bankka kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50%idan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

6.5. Taraflarni penya va oshirilgan foiz stavkasini to'lashi, ularning asosiy majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

VII.Nizolarni hal etish tartibi

7.1 Tomonlar ushbu oferta yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan kelishmovchilik va nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qiladilar. Agarda ko'rsatib o'tilgan kelishmovchilik va nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etilmasa, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan Bank xizmatlari ofisi (BXO), Bank xizmatlari markazi (BXM) joylashgan joydagi sudda hal etiladi

Nizolar vujudga kelgan taqdirda, Bank yozuvlari, ko'chirmalar har ikki tomon uchun mazkur oferta bo'yicha majburiyatlar isbotining dalili bo'lib hisoblanadi.

VIII. Ofertaning amal qilish muddati

8.1. Mazkur oferta akseptlagandan so'ng kuchga kiradi, Qarz oluvchi tomonidan ushbu oferta bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilguniga qadar amalda bo'ladi.

8.2. Mazkur shartnoma muddatidan oldin, shartnomada ko'zda tutilgan hollarga asosan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin.

8.3. Mazkur shartnoma tomonlardan birining tashabbusi bilan bekor bo'lganda, Qarz oluvchi Kredit bo'yicha barcha qarzдорliklarni Bankka to'lashi shart.

IX. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

9.1. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o'z faoliyatida korrupsion harakatlarni to'liq taqiqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta'minlash, ma'muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddalashtirish., raqobat va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi. Tomonlar o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo'lsa) talablariga amal qiladilar.

9.2. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida na o'zlari, na ijroiya organi, na ularning mansabdor shaxslari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korrupsion to'lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) har qanday korrupsion to'lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo'lmasliklarini kafolatlaydi.

9.3. Mazkur bo'limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Taraf yozma xabarnomada ushbu bo'limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart.

Yozma xabarnomalar "Biznesni rivojlanish banki" ATB tomonidan tashkil etilgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens ishonch liniyasi" kanallari" (tel:78-150-59-95, veb sayt www.brb.uz, Telegram messenger

@BRB_ANTI KOR_BOT (email: antikor@brb.uz) orqali amalga oshiriladi.

9.4. Ushbu bo‘lim qoidolari taraflardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa tarafning qoidabuzarliklarni ko‘rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma’lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraflama qisman yoki to‘liq bekor qilishga haqli.

9.5. Mazkur shartnomani korrupsiyaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash taraflar tomonidan yozma ravishda tasdiqlangan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

X. Boshqa shartlar

10.1. Kredit mobil ilova orqali 24/7 rejimida ajratiladi.

10.2. Qarz oluvchi, o‘ziga taalluqli bo‘lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan axborotlarni/ ma’lumotlarni Bank tomonidan uchinchi shaxslarga berilishiga yoki ulardan foydalanishiga o‘z roziligini beradi.

10.3. Mazkur shartnomaning bir yoki bir nechta sharti qonunga yoki sud qaroriga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotsa, shartnomaning boshqa shartlari bekor bo‘lishiga asos bo‘lmaydi.

10.4. Mazkur shartnomada ko‘zda tutilmagan boshqa holatlar bo‘yicha tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan hal etadilar.